ulushi ortgani kuzatiladi. 2026-yilda esa bayramlar, muftiy ma'ruzalari va dolzarb diniy mavzular asosiy kontent sifatida shakllangan. Saytda har kuni 5-10 ta yangi maqola joylashtirilishi saytning doimiy faol axborot resursi ekanini ko'rsatadi.

«muslim.uz» saytida joylangan maqolalarda quyidagicha bo'limlar qamrab olingan *(2026-yil 1-apreldan 30-aprel holatiga ko'ra)***:**



Saytning yana bir muhim jihati - uning media integratsiya tizimidir. Telegram, Facebook, Instagram va YouTube orqali diniy-ma'rifiy kontent keng auditoriyaga yetkaziladi. Audio-video ma'ruzalar, Qur'on tilovatlari, namoz o'rgatish darslari hamda muftiy nutqlari foydalanuvchilarning zamonaviy media iste'moli talablariga mos ravishda taqdim etilmoqda. Bu esa «muslim.uz»ning nafaqat matnli axborot resursi, balki kompleks multimedia sayt sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, «muslim.uz» saytsi O'zbekiston diniy-ma'rifiy axborot makonining markaziy va eng yirik raqamli resurslaridan biri hisoblanadi. Sayt faoliyati orqali islom dini ta'limotlari, fatvolar, ma'naviy-tarbiyaviy qadriyatlar hamda diniy-amaliy bilimlar keng ommaga tizimli ravishda yetkazib kelinmoqda. Statistik-tahlil natijalari sayt kontenti ko'p yo'nalishli, ilmiy-ma'rifiy va auditoriya ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, aqida, fiqh, axloq va oilaviy tarbiya mavzularining ustuvorligi jamiyatda diniy savodxonlik va ma'naviy madaniyatni oshirishga qaratilgan yondashuv mavjudligini tasdiqlaydi.

"oyina.uz" sayti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida faoliyat yurituvchi ma'naviy-ma'rifiy raqamli sayt hisoblanadi [12]. Saytning asosiy vazifasi aholiga mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy jarayonlar haqida tizimli axborot yetkazishdan iborat. Saytda yangiliklar, maqolalar, multimedia, kutubxona, rasmiy hujjatlar va ma'naviy-ma'rifiy materiallar muntazam joylashtirib boriladi. Sayt tarkibida foto, video, audio, infografika, virtual sayohat, elektron va audio kitoblar kabi multimedia vositalarining mavjudligi uning zamonaviy raqamli media imkoniyatlaridan foydalanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, kutubxona bo'limida nazm, nasr,

drama, folklor, ilmiy va publitsistik materiallarning jamlangani saytning ma'rifiy ahamiyatini oshiradi.

«oyina.uz» saytida e'lon qilingan maqolalar asosan ma'naviyat, tarix, adabiyot, til, ta'lim-tarbiya, san'at, mafkura va falsafa kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, sayt faoliyati davomida jami 2198 ta maqola e'lon qilingan bo'lib, eng katta ulush adabiyot (23,38%) va tarix (23,11%) mavzulariga to'g'ri keladi. Bu holat saytda milliy meros, tarixiy xotira va adabiy qadriyatlarni targ'ib qilish ustuvor yo'nalish ekanini ko'rsatadi. Ma'naviyat, san'at, jarayon va til mavzularidagi maqolalar ham sezilarli ulushni tashkil etib, saytning ko'p yo'nalishli mazmunga ega ekanini anglatadi. Din va falsafa mavzularidagi materiallar ulushi nisbatan kam bo'lsa-da, ular umumiy ma'naviy-ma'rifiy kontent tarkibini to'ldirib turadi.

2026-yil aprel oyidagi statistik ko'rsatkichlar «oyina.uz» saytida tarix va adabiyot mavzularining yetakchi o'rin tutayotganini, qolgan yo'nalishlar esa qo'shimcha ma'naviy-ma'rifiy mazmunni shakllantirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.


Xulosa sifatida, «oyina.uz» sayti O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy axborot makonida muhim o'rin egallovchi saytlardan biri hisoblanadi. Sayt faoliyati orqali tarix, adabiyot, ma'naviyat va milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Statistik-tahlil natijalari sayt kontentida tarix va adabiyot mavzulari yetakchi o'rinni egallashini ko'rsatdi. Bu esa saytning milliy meros, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarni keng targ'ib qilishga yo'naltirilganini anglatadi. 2026-yil aprel oyidagi maqolalar tahlili ham tarix va adabiyot yo'nalishlari asosiy ulushni tashkil etganini ko'rsatdi. Ayrim mavzular bo'yicha maqolalar sonining kamligi yoki mavjud emasligi esa kontentning davriy ravishda ma'lum yo'nalishlarga yo'naltirilishini bildiradi. Shunga qaramay, sayt multimedia vositalari, elektron kutubxona va turli ma'naviy-ma'rifiy bo'limlari orqali foydalanuvchilarga keng qamrovli axborot resurslarini taqdim etmoqda. Shu jihatdan, «oyina.uz» nafaqat axborot sayti, balki ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni zamonaviy raqamli muhitda amalga oshiruvchi muhim media sayt sifatida ahamiyat kasb etadi.

"religions.uz" – sayti O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi 1992-yil 7-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitani tashkil etish to'g'risida" gi [14] Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Qo'mita mamlakatda vijdon erkinligini ta'minlash, diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, konfessiyalararo bag'rikenglikni mustahkamlash hamda din sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish vakolatiga ega davlat boshqaruvi organi hisoblanadi [13].

2026-yil aprel oyida Din ishlari bo'yicha qo'mita rasmiy veb-saytida e'lon qilingan materiallar tahlili shuni ko'rsatdiki, sayt faoliyati asosan diniy-ma'rifiy tadbirlarni yoritish, davlatning din sohasidagi siyosatini targ'ib qilish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va fuqarolarni dolzarb axborotlar bilan ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, saytda haj va ziyorat masalalari, tarixiy-madaniy meros,

yoshlar bilan ishlash hamda axborot xavfsizligi va raddiya mazmunidagi materiallar ham muntazam yoritib borilgan.

Religions.uz saytida joylangan yangiliklarga ko‘ra quyidagicha bo‘limlar qamrab olingan (2026-yil 1-apreldan 30-aprel holatiga ko‘ra)**:**



Kontent-tahlili natijalari sayt diniy-ma’rifiy axborotlarni aholiga yetkazish, diniy bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib qilish va din sohasidagi yangiliklarni yoritishda muhim axborot manbai ekanini ko‘rsatdi. Shuningdek, kibermakon, axborot xavfsizligi va zararli g‘oyalarga qarshi ma’rifiy targ‘ibot masalalariga ham e’tibor qaratilayotgani kuzatildi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, sayt diniy savodxonlikni oshirish, bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib qilish, diniy sohadagi davlat siyosatini yoritish va xalqaro aloqalar haqida axborot berish vazifalarini muntazam amalga oshirmoqda. Biroq kibermakondagi diniy-ekstremistik g‘oyalarga qarshi raddiyalar, yoshlar uchun interaktiv materiallar, analitik sharhlar va multimedia kontentlari nisbatan kam ulushni tashkil etadi. Shu sababli kelgusida ushbu yo‘nalishlarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Umuman, Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning rasmiy veb-sayti diniy-ma’rifiy va axborot-kommunikativ vazifalarni samarali bajaruvchi, jamiyatda diniy bag‘rikenglik va ma’rifatni targ‘ib qiluvchi muhim internet resurslardan biri hisoblanadi.

“Oliymahad.uz” sayti Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining rasmiy axborot sayti bo‘lib, institut faoliyati, ta’lim jarayoni, ilmiy-ma’rifiy materiallar va diniy sohadagi yangiliklarni yoritishga xizmat qiladi [15]. Sayt elektron axborot resursi sifatida 2011-yil 27-iyulda ro‘yxatdan o‘tgan (Guvohnoma №0680) [16].

Saytda institut yangiliklari, qabul jarayonlari, ilmiy konferensiyalar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, talabalar hayoti, professor-o‘qituvchilar faoliyati hamda diniy-

ma'rifiy maqolalar muntazam e'lon qilinadi. Shuningdek, institut tarixi, tuzilmasi, ta'lim yo'nalishlari va me'yoriy hujjatlar haqida ma'lumotlar beriladi. Shu jihatdan sayt diniy ta'lim, ma'rifat va yoshlarning diniy savodxonligini oshirishda muhim axborot resursi hisoblanadi.

2026-yil yanvar–aprel oylarida o'tkazilgan kontent-tahlilga ko'ra, saytda jami 17 ta maqola chop etilgan. Ular mazmuniga ko'ra fiqhiy, aqida va axloq, psixologiya va din integratsiyasi, ijtimoiy-ma'rifiy hamda tarixiy yo'nalishlarga ajratilgan. Eng katta ulush psixologiya va din, aqida va axloq hamda ijtimoiy-ma'rifiy mavzularga to'g'ri kelib, har biri 23,5 foizni tashkil etgan.


Maqolalarda diniy bilimlarni zamonaviy ijtimoiy va psixologik muammolar bilan bog'lash tendensiyasi kuzatiladi. Ruhiy holat, yo'qotish kechinmalari, oilaviy muammolar va shaxsiy tarbiya kabi masalalarning diniy nuqtai nazardan yoritilishi saytning ma'rifiy va tarbiyaviy yo'nalishini kuchaytiradi.

Umuman, kontent-tahlil natijalari Oliymahad.uz saytida psixologiya, axloq va ijtimoiy masalalar ustuvor o'rin tutishini ko'rsatdi. Fiqhiy materiallar son jihatdan kamroq bo'lsa-da, mazmunan ilmiy va tahliliy xarakterga ega.

"ziyo.uz" sayti O'zbekiston internet makonidagi yirik ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-ommabop elektron resurslardan biri hisoblanadi [17]. 2004-yilda tashkil etilgan sayt o'zbek tilidagi milliy kontentni rivojlantirish, elektron kutubxona fondini boyitish va foydalanuvchilarga ilmiy-ma'rifiy axborot yetkazishga xizmat qiladi. Sayt faoliyati davomida bir qator nufuzli mukofotlarga, jumladan, 2012–2014-yillarda "UZ milliy domeni" internet-festivalining "Fan va ta'lim sohasidagi eng yaxshi sayt" nominatsiyasidagi g'oliblik hamda 2013-yilda "Oltin qalam" milliy mukofotiga sazovor bo'lgan.

Saytda tarix, oila va jamiyat, siyosat, madaniyat va san'at, sport, suhbatlar hamda qiziqarli ma'lumotlar kabi bo'limlar mavjud. "Ilm va fan" bo'limida 1019 ta, "Tarix" bo'limida esa 467 ta material joylashtirilgani saytning gumanitar, ilmiy-ma'rifiy hamda tarixiy kontentga alohida e'tibor qaratishini ko'rsatadi.

«ziyo.uz» saytida joylangan maqolalarda quyidagicha bo'limlar qamrab olingan *(2026-yil 1-apreldan 30-aprel holatiga ko'ra)*:



Biroq 2025–2026-yillardagi faoliyat tahlili saytning ayrim bo‘limlarida yangilanish sur’ati sustlashganini ko‘rsatdi. Xususan, “Oila va jamiyat” bo‘limidagi oxirgi maqola 2021-yilda joylashtirilgan. Shuningdek, zamonaviy internet resurslari bilan taqqoslaganda, multimedia va interaktiv kontentning kamligi kuzatiladi. Shu sababli saytning boy tarixiy va adabiy bazasini saqlagan holda kontentni muntazam yangilash hamda multimedia imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Umuman, “ziyo.uz” O‘zbekiston kibermakonidagi muhim ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy elektron resurslardan biri bo‘lib, katta elektron kutubxona fondi, tarixiy va adabiy materiallari bilan ajralib turadi. Statistik tahlillar adabiyot va tarix yo‘nalishlari ustuvor ekanini ko‘rsatdi. Biroq ayrim bo‘limlarning yangilanmasligi va multimedia imkoniyatlarining cheklanganligi saytni zamonaviy auditoriya ehtiyojlariga moslashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. O‘zbekiston kibermakonidagi “uz” domenidagi diniy-ma’rifiy va ilmiy-ommabop saytlar milliy raqamli kommunikatsiya tizimining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Tadqiqotda tahlil qilingan “islom.uz”, “siyrat.uz”, “bukhari.uz”, “mehrob.uz”, “muslim.uz”, “religions.uz”, “oliymahad.uz”, “oyina.uz” va “ziyo.uz” saytlari diniy savodxonlikni oshirish, milliy va ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish hamda foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini qondirishda muhim o‘rin tutishi aniqlandi.

Tahlillar mazkur saytlarning asosan diniy-ma’rifiy, tarixiy, axloqiy va tarbiyaviy kontentga ixtisoslashganini ko‘rsatdi. “islom.uz” va “muslim.uz”da fiqh, aqida, axloq va ibodat mavzulari, “siyrat.uz” va “bukhari.uz”da tarixiy-diniy meros, siyrat va qo‘lyozmalar, “mehrob.uz” va “oliymahad.uz”da esa diniy bilimlarning psixologik, ijtimoiy va tarbiyaviy mavzular bilan uyg‘unligi ustuvor ekani kuzatildi. “oyina.uz” va “ziyo.uz”da tarix, adabiyot va milliy merosga oid materiallarning salmoqli ulushi milliy xotira va identiklikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

“religions.uz” esa din sohasidagi davlat siyosatini yoritish, diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlik g‘oyalarini targ‘ib qilishda muhim platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda. Umuman, tahlil qilingan saytlar diniy-ma’rifiy targ‘ibot bilan bir qatorda axloqiy tarbiya, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va ijtimoiy masalalarni ham yoritib, jamiyatning ma’naviy-madaniy rivojiga xizmat qiluvchi kommunikativ media maydon sifatida shakllangan.

Shu bilan birga, kelgusida multimedia va interaktiv kontentni kengaytirish, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, mobil auditoriya uchun zamonaviy xizmatlarni rivojlantirish va kontentni muntazam yangilab borish ushbu saytlarning samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot ishtirokchilarining hissasi. Tadqiqot jamoaviy ilmiy izlanish asosida amalga oshirilib, unda materiallarni yig‘ish, tasniflash, kontent-tahlil qilish va umumlashtirishda O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 1-kurs magistrlari Abdusalomova Nafosatbonu Isomiddin qizi (“oliymahad.uz”), Ibragimova Farangiz Ilhomjon qizi (“muslim.uz”), Norbo‘tayeva Zahro Faxriddin qizi (“ziyo.uz”), Odilova Dildoraxon Baxodirjon qizi (“bukhari.uz”),

Xakimxo‘jayeva Sevara Rashid qizi (“islom.uz”) hamda Xudayshukurova Madina Ikrom qizi (“mehrob.uz”) faol ishtirok etdilar. Ularning hissasi tadqiqotning empirik bazasini boyitish va tahlil qamrovini kengaytirishga xizmat qildi. Maqola mualliflari tadqiqotdagi samarali ilmiy hamkorlik uchun ularga minnatdorlik bildiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UZ milliy domeni yangi rekordga erishdi — 150 000 domen nomi! 13.03.2026. Manzil: https://cctld.uz/news/?detail=1601 (Murojaat sanasi: 30.05.2026)
2. Домену .UZ тридцать один — и мы перешагнули рубеж в 60 000 доменов под управлением. 29.04.2026. Manzil: https://www.ahost.uz/news/598 (murojaat sanasi: 30.05.2026)
3. https://islom.uz sayti
4. Shuhrat Shokirjonov. „Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning shogirdi 24 yildan buyon O‘zbekiston fuqaroligini kutmoqda“. Kun.uz (2018-yil 11-fevral). Qaraldi: 2025-yil 13-aprel
5. “islom.uz портали ҳақида”. «islom.uz». Qaraldi: 2025-yil 13-aprel.
6. “Onlayn so‘rovnoma: O‘zbekistondagi eng yaxshi internet-nashr, bloger va Telegram-kanal aniqlandi“. Kun.uz (2019-yil 11-noyabr). Qaraldi: 2025-yil 13-aprel.
7. “islom.uz” portalining mobil dasturi ishga tushirildi”. Daryo.uz (2018-yil 21-may). Qaraldi: 2025-yil 13-aprel.
8. https://t.me/siyrat_uz telegram sahifasi.
9. https://bukhari.uz sayti.
10. https://mehrob.uz sayti.
11. https://muslim.uz sayti.
12. https://oyina.uz sayti.
13. https://religions.uz sayti.
14. O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi. Diniy idoralararo axborot tizimi. https://diaat.uz/
15. https://oliymahad.uz sayti.
16. Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti rasmiy sayti [Elektron resurs]: https://oliymahad.uz/
17. https://ziyo.uz sayti.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

UDK 004.738.5:159.9

Sultonbekova O‘g‘iloy Ilyosjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

INTERNETGA QARAMLIK VA SHAXS IJTIMOIY XULQ-ATVORI O‘RTASIDAGI PSIXOLOGIK BOG‘LIQLIK

Annotatsiya. Mazkur maqolada internetga qaramlik va shaxs ijtimoiy xulq-atvori o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik masalasi tahlil qilinadi. Hozirgi raqamlashtirish jarayonida internetdan foydalanish inson hayotining ajralmas qismiga aylanib, shaxsning muloqoti, ijtimoiy munosabatlari va kundalik xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internetdan me’yoridan ortiq va nazoratsiz foydalanish esa shaxsning real ijtimoiy muhit bilan munosabatlariga, kommunikativ faolligiga, ijtimoiy moslashuviga hamda xulq-atvorining ayrim jihatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Maqolada internetga qaramlikning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar, uning shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy xulq-atvor bilan bog‘liq jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: internetga qaramlik, raqamli muhit, ijtimoiy xulq-atvor, shaxs, internetdan foydalanish, ijtimoiy moslashuv, shaxslararo munosabatlar, kommunikativ faollik, virtual muloqot, psixologik omillar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТЬЮ И СОЦИАЛЬНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: В данной статье анализируется проблема психологической взаимосвязи между интернет-зависимостью и социальным поведением личности. В условиях современной цифровизации использование интернета стало неотъемлемой частью жизни человека, оказывая значительное влияние на его общение, социальные отношения и повседневное поведение. Чрезмерное и неконтролируемое использование интернета может негативно влиять на отношения личности с реальной социальной средой, коммуникативную активность, социальную адаптацию, а также на отдельные особенности поведения. В статье рассматриваются психологические факторы, влияющие на формирование интернет-зависимости, а также её взаимосвязь с межличностными отношениями и социальным поведением личности. Особое внимание уделяется психологическим аспектам интернет-зависимости и её влиянию на социальное поведение личности.

Ключевые слова: интернет-зависимость, цифровая среда, социальное поведение, личность, использование интернета, социальная адаптация, межличностные отношения, коммуникативная активность, виртуальное общение, психологические факторы.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

INTERNET ADDICTION AND THE PSYCHOLOGICAL RELATIONSHIP BETWEEN INTERNET ADDICTION AND AN INDIVIDUAL'S SOCIAL BEHAVIOR

Abstract. This article analyzes the psychological relationship between internet addiction and an individual's social behavior. In the current process of digitalization, internet use has become an integral part of human life, significantly affecting communication, social relationships, and everyday behavior. Excessive and uncontrolled internet use can negatively affect an individual's relationships with the real social environment, communicative activity, social adaptation, and certain aspects of behavior. The article examines the psychological factors contributing to the development of internet addiction, as well as its relationship with interpersonal relationships and social behavior. Particular attention is paid to the psychological aspects of internet addiction and its impact on the individual's social behavior.

Keywords: internet addiction, digital environment, social behavior, individual, internet use, social adaptation, interpersonal relationships, communicative activity, virtual communication, psychological factors.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internet tarmog'ining keng tarqalishi inson hayotining deyarli barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Internet ta'lim olish, axborot izlash, kasbiy faoliyatni amalga oshirish, muloqot qilish hamda bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etishning muhim vositasiga aylandi. Shu bilan birga, internetdan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi undan foydalanish chastotasi va davomiyligining ortishiga ham olib kelmoqda. Natijada internetdan me'yoridan ortiq va nazoratsiz foydalanish bilan bog'liq psixologik muammolar, xususan, internetdan muammoli foydalanish va internetga qaramlik masalasi dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda [1; 3; 6].

Internetga qaramlik shaxsning internetdan foydalanish jarayonini nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi, virtual faoliyatga haddan tashqari vaqt ajratishi hamda internetdan foydalanish ehtiyojining kundalik hayotdagi boshqa faoliyatlardan ustun kelishi bilan tavsiflanadi. K. Young tadqiqotlarida internetdan foydalanish ustidan nazoratning susayishi, undan foydalanishni to'xtatishda qiyinchilik va virtual faoliyatning shaxsning kundalik hayotiga salbiy ta'siri internetga qaramlikning muhim belgilaridan biri sifatida ko'rsatilgan [1; 2]. Mazkur holat shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda, uning ijtimoiy munosabatlari va xulq-atvoriga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin [5; 6].

Ayniqsa, real ijtimoiy muloqotning kamayishi, virtual muloqotga ehtiyojning ortishi, ijtimoiy faollikning o'zgarishi va shaxslararo munosabatlarda muayyan qiyinchiliklarning yuzaga kelishi internetdan muammoli foydalanishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini chuqur o'rganishni talab etadi. S. Caplan internetdan

muammoli foydalanishni shaxsning onlayn ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni afzal ko‘rishi va psixologik farovonligi bilan bog‘liq holda izohlaydi [5].

Shaxsning ijtimoiy xulq-atvori uning jamiyatdagi munosabatlari, muloqot jarayoni, ijtimoiy me’yorlarga munosabati, guruhdagi o‘zini tutishi hamda boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Raqamli muhitning kengayishi natijasida mazkur xulq-atvor shakllarining namoyon bo‘lishida ham muayyan o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqot vositalarining keng qo‘llanilishi shaxsning o‘zini namoyon qilishi, boshqalar bilan munosabat o‘rnatishi va ijtimoiy vaziyatlarga munosabat bildirish usullariga ta’sir ko‘rsatmoqda [9; 11].

Internetga qaramlik va ijtimoiy xulq-atvor o‘rtasidagi munosabatni bir tomonlama jarayon sifatida baholash to‘g‘ri emas. Bir tomondan, internetdan ortiqcha foydalanish shaxsning real ijtimoiy aloqalarini cheklashi va ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ikkinchi tomondan, yolg‘izlik, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va real hayotdagi shaxslararo munosabatlarning yetarli darajada shakllanmaganligi ham internetdan haddan tashqari foydalanishga moyillikni kuchaytirishi mumkin [5; 6; 11]. Shu jihatdan internetga qaramlikni shaxsning ijtimoiy xulq-atvori bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan murakkab psixologik hodisa sifatida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur muammoning dolzarbligi, avvalo, zamonaviy jamiyatda insonning virtual va real ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlari tobora kuchayib borayotgani bilan belgilanadi. Ayniqsa, yoshlar orasida internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning kengayishi ularning muloqot madaniyati, ijtimoiy faolligi, shaxslararo munosabatlari va xulq-atvoriga ta’sir etuvchi omillarni chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda [9; 10]. Shu sababli internetga qaramlikning psixologik xususiyatlari hamda uning shaxs ijtimoiy xulq-atvori bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash zamonaviy psixologiyaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Internetga qaramlik va uning shaxs ijtimoiy xulq-atvoriga ta’siri masalasi psixologiya, ijtimoiy psixologiya va boshqa fanlar doirasida keng o‘rganilayotgan muammolardan biridir. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu hodisani faqat internetdan foydalanish davomiyligi bilan izohlash yetarli emasligi, balki undan foydalanish maqsadi, shaxsning psixologik ehtiyojlari, ijtimoiy munosabatlari va virtual muhitdagi xulq-atvorini ham hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi [6; 11; 12].

Internetga qaramlik tushunchasining ilmiy muomalaga kirib kelishida K. Youngning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotchi internetdan haddan tashqari foydalanishni shaxsning kundalik faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muammo sifatida o‘rgangan [1; 2]. K. Young tomonidan ishlab chiqilgan Internet Addiction Test (IAT) keyingi tadqiqotlarda internetdan muammoli foydalanish darajasini aniqlash uchun keng qo‘llanilgan [8]. Uning yondashuvida internetdan foydalanish ustidan nazoratning

susayishi, virtual faoliyatga ortiqcha vaqt ajratish va internetdan foydalanishni to‘xtatishda qiyinchiliklar muhim belgilar sifatida qaraladi [1; 2].

Internetga qaramlikning psixologik mohiyatini izohlashga qaratilgan tadqiqotlarda M. Griffithsning “xulq-atvoriy qaramlik” konsepsiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Muallif ayrim xulq-atvor shakllari moddalarga bog‘liq qaramlikka o‘xshash psixologik mexanizmlar asosida shakllanishi mumkinligini ta’kidlaydi [3; 4]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, muayyan faoliyatning shaxs hayotida ustun mavqega ega bo‘lishi, kayfiyatni o‘zgartirish vositasiga aylanishi, tolerantlikning ortishi, faoliyatni cheklashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi va salbiy oqibatlarga qaramay uni davom ettirish kabi belgilar xulq-atvoriy qaramlikni tavsiflovchi asosiy komponentlar sifatida qaraladi [4]. Ushbu yondashuv internetga qaramlikni faqat internetdan ko‘p foydalanish holati bilan cheklamasdan, uning ortida yotuvchi psixologik jarayonlarni o‘rganish imkonini beradi.

Asosiy qism. Internetdan foydalanish va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan tadqiqotchilar internetning shaxs ijtimoiy hayotiga ta’siri bir xil emasligini qayd etadilar. Ayrim tadqiqotlarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish muloqot imkoniyatlarini kengaytirishi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishi hamda turli ijtimoiy guruhlar bilan aloqalarni saqlab qolishga yordam berishi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, internetdan muammoli foydalanish real ijtimoiy aloqalarning qisqarishi, yolg‘izlik hissining kuchayishi va shaxslararo munosabatlardagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [5; 9]. Demak, internetning ijtimoiy xulq-atvorga ta’sirini faqat ijobiy yoki salbiy yo‘nalishda baholash yetarli emas.

Mazkur masalani tushuntirishda kompensator internetdan foydalanish yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. D. Kardefelt-Vintherning fikricha, internetdan foydalanish ayrim hollarda real hayotdagi qoniqarsiz ehtiyojlar, psixologik qiyinchiliklar yoki ijtimoiy muammolarni vaqtincha kompensatsiya qilish vositasiga aylanishi mumkin [11]. Real hayotda ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish yoki qo‘llab-quvvatlashda qiyinchilikka duch keladigan shaxslar virtual muhitdan o‘zlarining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida foydalanishga ko‘proq moyil bo‘lishlari mumkin [5; 11]. Natijada internet vaqtinchalik psixologik qulaylik yaratishi bilan birga, real ijtimoiy faoliyatning kamayishiga ham olib kelishi ehtimoli mavjud.

R. Davis tomonidan taklif etilgan kognitiv-xulqiy modelda esa internetdan patologik foydalanish shaxsning muayyan kognitiv xususiyatlari, noto‘g‘ri fikrlash shakllari va xulq-atvor strategiyalari bilan bog‘liq holda izohlanadi [6]. Ushbu yondashuv internetdan muammoli foydalanishning shakllanishida shaxsning faqat internetga bo‘lgan ehtiyoji emas, balki uning ijtimoiy vaziyatlarni qabul qilishi va ularga munosabat bildirish usullari ham muhim ekanini ko‘rsatadi.

Shaxsning ijtimoiy xulq-atvori masalasiga oid psixologik tadqiqotlarda uning shakllanishida ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy tajriba, kommunikativ ehtiyojlar va guruh ta’sirining muhimligi qayd etiladi. Raqamli muhit

esa ushbu omillarning namoyon bo‘lish shakllarini o‘zgartirib, shaxs uchun yangi ijtimoiy tajriba maydonini yaratmoqda. Virtual guruhlar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn hamjamiyatlar va turli kommunikativ platformalar shaxsning boshqalar bilan munosabat o‘rnatishi hamda o‘zini namoyon qilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda [9; 10].

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili internetga qaramlikni ko‘p omilli psixologik hodisa sifatida baholash imkonini beradi. Uning shakllanishi va namoyon bo‘lishida internetdan foydalanishning intensivligi bilan bir qatorda, shaxsning psixologik xususiyatlari, kognitiv jarayonlari, ijtimoiy ehtiyojlari va real ijtimoiy muhit bilan munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega [4; 6; 11; 14]. Shu sababli internetga qaramlik va shaxsning ijtimoiy xulq-atvori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni empirik jihatdan o‘rganish mazkur muammoning psixologik mexanizmlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

1-jadval

Internetga qaramlik va shaxs ijtimoiy xulq-atvori o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikning konseptual modeli

Asosiy tushuncha	Tarkibiy komponentlar	Psixologik namoyon bo‘lishi	Shaxs ijtimoiy xulq-atvoriga ehtimoliy ta’siri
Internetga qaramlik	Internetdan ortiqcha foydalanish	Internetdan foydalanishga kuchli ehtiyoj, vaqtni nazorat qila olmaslik	Real ijtimoiy faoliyatning kamayishi
Internetdan foydalanish intensivligi	Foydalanish davomiyligi va chastotasi	Internetda ko‘p vaqt o‘tkazish, virtual faoliyatga ustuvorlik berish	Ijtimoiy munosabatlarga ajratiladigan vaqtning qisqarishi
Virtual muloqotga ehtiyoj	Onlayn muloqot, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish	Virtual aloqalarni real munosabatlardan ustun qo‘yish	Real shaxslararo muloqotning susayishi
Ijtimoiy moslashuv	Jamiyat va guruhga moslashish	Ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutishdagi qiyinchiliklar	Guruh bilan munosabatlarning zaiflashishi yoki o‘zgarishi
Kommunikativ faollik	Muloqotga kirishish va munosabat o‘rnatish	Muloqot ehtiyojining o‘zgarishi, yuzma-yuz muloqotdan qochish	Kommunikativ faollikning pasayishi

Shaxslararo munosabatlar	Oila, do‘stlar va tengdoshlar bilan munosabat	Real munosabatlarga qiziqishning kamayishi yoki virtual aloqalarning ustunligi	Ijtimoiy aloqalarning torayishi
Ijtimoiy faollik	Jamoaviy va ijtimoiy faoliyatda ishtirok	Ijtimoiy tadbirlarda ishtirokning kamayishi	Passiv ijtimoiy xulq-atvorning kuchayishi
Psixologik omillar	Yolg‘izlik, ijtimoiy ehtiyoj, o‘zini baholash, emotsional holat	Virtual muhitdan psixologik ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida foydalanish	Ijtimoiy xulq-atvor strategiyalarining o‘zgarishi
Ijtimoiy xulq-atvor	Muloqot, hamkorlik, moslashuv, ijtimoiy faollik	Real va virtual muhitda turlicha xulq-atvor namoyon bo‘lishi	Shaxsning ijtimoiy munosabatlari va xulq-atvorida transformatsiya

2-jadval

Internetga qaramlik va shaxs ijtimoiy xulq-atvori ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik

№	Ko‘rsatkichlar	N	M	SD	r	p
1	Internetga qaramlik	120	52,43	8,76	1,000	—
2	Ijtimoiy moslashuv	120	38,27	6,41	-0,462**	0,001
3	Kommunikativ faollik	120	35,84	5,97	-0,391**	0,001
4	Shaxslararo munosabatlar	120	41,16	7,02	-0,428**	0,001
5	Ijtimoiy faollik	120	34,72	6,15	-0,347**	0,001
6	Hamkorlik xulqi	120	36,53	5,82	-0,286**	0,002
7	Kommunikativ xulq	120	37,21	6,34	-0,374**	0,001
8	Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	120	40,38	6,73	-0,315**	0,001

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, internetga qaramlik va shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli manfiy bog‘liqliklar aniqlandi. Xususan, internetga qaramlik bilan ijtimoiy moslashuv o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti $\mathbf{r = -0{,}462\ (p < 0{,}01)}$ ni tashkil etdi. Mazkur natija o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar o‘rtasida o‘rtacha darajadagi manfiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ya’ni, internetga qaramlik darajasi ortib borishi bilan shaxsning ijtimoiy muhitga moslashish ko‘rsatkichlari

pasayish tendensiyasiga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu holat internetdan muammoli foydalanishning shaxsning kundalik faoliyati va ijtimoiy munosabatlariga ta’siri haqidagi ilmiy qarashlar bilan hamohangdir [1; 6; 11].

Internetga qaramlik va kommunikativ faollik o‘rtasida ham statistik jihatdan ahamiyatli manfiy bog‘liqlik kuzatildi **(**$r = -0{,}391$; $p < 0{,}01$**).** Mazkur natija internetdan ortiqcha foydalanish darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda yuzma-yuz muloqotga kirishish va real ijtimoiy aloqalarda faol ishtirok etish ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Shu bilan birga, ushbu natijani internetdagi muloqotning mutlaq salbiyligi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Chunki virtual muloqot ayrim hollarda shaxsning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy aloqalarni saqlab qolish vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin [5; 9].

Internetga qaramlik va shaxslararo munosabatlar o‘rtasida ham statistik jihatdan ahamiyatli manfiy korrelyatsiya aniqlandi ($r = -0{,}428$; $p < 0{,}01$**).** Ushbu natija internetdan haddan tashqari foydalanish shaxsning oila a’zolari, do‘stlari va tengdoshlari bilan real hayotdagi munosabatlariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadi. Mazkur bog‘liqlik internetdan muammoli foydalanishning ijtimoiy munosabatlar bilan o‘zaro aloqadorligini ta’kidlovchi tadqiqotlar bilan mos keladi [5; 6; 9].

Internetga qaramlikning ijtimoiy faollik bilan bog‘liqligi ham manfiy yo‘nalishda bo‘lib, korrelyatsiya koeffitsiyenti $r = -0{,}347$ ($p < 0{,}01$) ni tashkil etdi. Demak, internetga qaramlik darajasi ortishi bilan shaxsning turli ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etish darajasi pasayish tendensiyasiga ega. Bunday holat shaxs vaqtining katta qismini virtual faoliyatga sarflashi natijasida real ijtimoiy faoliyatga ajratiladigan vaqt va imkoniyatlarning qisqarishi bilan izohlanishi mumkin [9; 11].

Umuman olganda, olingan natijalar internetga qaramlik va shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli manfiy bog‘liqliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Eng yuqori korrelyatsiya ijtimoiy moslashuv **(**$r = -0{,}462$**)** va shaxslararo munosabatlar **(**$r = -0{,}428$**)** ko‘rsatkichlari bilan, nisbatan pastroq bog‘liqlik esa ijtimoiy faollik **(**$r = -0{,}347$**)** bilan kuzatildi. Mazkur natijalar internetdan nazoratsiz foydalanish shaxsning real ijtimoiy muhitdagi faoliyati, moslashuvi va munosabatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq korrelyatsion natijalar sabab-oqibat munosabatlarini bevosita tasdiqlamasligini hisobga olish lozim [11].

Muhokama. Tadqiqot doirasida internetga qaramlik va shaxsning ijtimoiy xulq-atvori o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikni o‘rganish natijalari ushbu hodisaning ko‘p omilli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. Internetga qaramlik darajasi bilan ijtimoiy moslashuv, kommunikativ faollik, shaxslararo munosabatlar hamda ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlari o‘rtasida manfiy yo‘nalishdagi statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqliklarning aniqlanishi mazkur muammoning ijtimoiy-psixologik jihatdan muhimligini ko‘rsatadi.

Avvalo, internetga qaramlik va ijtimoiy moslashuv o‘rtasidagi $r = -0{,}462$ darajasidagi manfiy korrelyatsiya shaxsning virtual muhitga haddan tashqari

yo‘nalishi uning real ijtimoiy muhit bilan munosabatlariga ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. R. Davisning kognitiv-xulqiy modelida ham internetdan muammoli foydalanish shaxsning kognitiv xususiyatlari, psixologik holati va kundalik xulq-atvori bilan bog‘liq holda izohlanadi [6]. Shu nuqtayi nazardan, internetdan foydalanishning nazoratdan chiqishi shaxsning real ijtimoiy vaziyatlarga moslashish jarayonini murakkablashtiruvchi omillardan biri bo‘lishi mumkin.

Kommunikativ faollik bilan aniqlangan r = −0,391 darajasidagi bog‘liqlik ham e’tiborga loyiq. Internet va ijtimoiy tarmoqlar shaxslararo muloqot uchun keng imkoniyatlar yaratishiga qaramay, ulardan muammoli foydalanish real yuzma-yuz muloqotning qisqarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [5; 9]. S. Caplanning nazariyasida onlayn ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni afzal ko‘rish shaxsning psixologik va ijtimoiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda izohlanadi [5]. Demak, virtual muloqotning mavjudligi emas, balki uning real muloqot o‘rnini qanchalik egallab borayotgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Internetga qaramlik va shaxslararo munosabatlar o‘rtasidagi r = −0,428 darajasidagi korrelyatsiya esa real ijtimoiy aloqalarning internetdan foydalanish xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Internetdan muammoli foydalanish holatida shaxsning oila, do‘stlar va tengdoshlar bilan bevosita muloqotga ajratadigan vaqti kamayishi, virtual muloqotga bo‘lgan ehtiyoj esa ortishi mumkin [9; 11]. Biroq mazkur munosabatni bir tomonlama sabab-oqibat aloqasi sifatida baholash maqsadga muvofiq emas. Chunki real hayotdagi ijtimoiy qiyinchiliklar, yolg‘izlik va ijtimoiy ehtiyojlarning yetarli darajada qondirilmasligi ham internetdan haddan tashqari foydalanishga sabab bo‘lishi mumkin [11].

Ijtimoiy faollik bilan internetga qaramlik o‘rtasida aniqlangan r = −0,347 darajasidagi manfiy bog‘liqlik ham mazkur fikrlarni to‘ldiradi. Internetga haddan tashqari bog‘lanish shaxsning bo‘sh vaqtini asosan virtual faoliyatga yo‘naltirishiga va natijada turli jamoaviy hamda ijtimoiy faoliyatlarda ishtirokining qisqarishiga olib kelishi mumkin. M. Griffithsning xulq-atvoriy qaramlik konsepsiyasida muayyan faoliyatning shaxs hayotida haddan tashqari ustun mavqega ega bo‘lishi va boshqa faoliyatlarning cheklanishi qaramlikning muhim xususiyatlaridan biri sifatida qaraladi [3; 4].

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini internetning shaxs ijtimoiy hayotiga faqat salbiy ta’siri mavjud degan xulosaga keltirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Internet zamonaviy shaxs uchun masofaviy muloqot, ta’lim olish, kasbiy aloqalarni rivojlantirish, turli ijtimoiy guruhlarga qo‘shilish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi [9]. Shuning uchun muhim masala internetdan foydalanishning o‘zi emas, balki uning maqsadi, mazmuni, intensivligi va shaxs hayotining boshqa sohalari bilan muvozanati hisoblanadi [11; 12].

Xulosa. Tadqiqot natijalari internetga qaramlik va shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli manfiy bog‘liqliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, internetga qaramlik bilan

ijtimoiy moslashuv (**r = −0,462; p < 0,01**), shaxslararo munosabatlar (**r = −0,428; p < 0,01**), kommunikativ faollik (**r = −0,391; p < 0,01**) va ijtimoiy faollik (**r = −0,347; p < 0,01**) o‘rtasida manfiy korrelyatsiyalar aniqlandi. Bu natijalar internetdan muammoli va nazoratsiz foydalanish darajasi ortishi bilan shaxsning real ijtimoiy muhitdagi ayrim xulq-atvor ko‘rsatkichlari pasayishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Internetdan foydalanish shaxs uchun axborot olish, ta’lim olish va muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirsa-da, undan nazoratsiz foydalanish real hayotdagi ijtimoiy faoliyatga ajratiladigan vaqtning qisqarishiga olib kelishi mumkin [1; 9]. Natijada shaxsning turli ijtimoiy vaziyatlarda faol ishtirok etishi, yangi munosabatlarni shakllantirishi va mavjud ijtimoiy aloqalarni qo‘llab-quvvatlashi bilan bog‘liq imkoniyatlari kamayishi ehtimoli yuzaga keladi.

Internetga qaramlik va kommunikativ faollik o‘rtasidagi manfiy bog‘liqlik ham muhim ahamiyatga ega. Shaxsning muloqot ehtiyojlarini tobora ko‘proq virtual vositalar orqali qondirishi yuzma-yuz muloqotning kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin [5; 9]. Bunda virtual muloqotning o‘zi salbiy hodisa sifatida baholanmasligi lozim. Muhim jihat shundaki, virtual muloqot real muloqotning o‘rnini to‘liq egallab, shaxsning kommunikativ faoliyatida ustun mavqega ega bo‘lib qolmasligi kerak.

Internetga qaramlik va shaxslararo munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ham shu nuqtayi nazardan izohlanadi. Shaxsning oila a’zolari, do‘stlari va tengdoshlari bilan munosabatlari uning ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Internetdan ortiqcha foydalanish natijasida real ijtimoiy munosabatlarga ajratiladigan vaqt qisqarishi, muloqotga bo‘lgan ehtiyojning ma’lum qismi esa virtual muhit orqali qondirilishi mumkin [9; 11]. Biroq ushbu holatni barcha internet foydalanuvchilariga bir xil tarzda tatbiq etish mumkin emas. Internetdan foydalanishning maqsadi, mazmuni, shakli va shaxsning individual-psixologik xususiyatlari mazkur munosabatlarning namoyon bo‘lishida muhim omillar hisoblanadi.

Tadqiqotda internetga qaramlikning ijtimoiy faollik bilan manfiy bog‘liqligi aniqlangani ham muhimdir. Ijtimoiy faollik shaxsning jamoaviy faoliyat, turli guruhlar va ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etish darajasini ifodalaydi. Internetga haddan tashqari bog‘lanish shaxs bo‘sh vaqtining katta qismini virtual faoliyatga yo‘naltirishiga va natijada real ijtimoiy faoliyatga bo‘lgan qiziqish hamda ishtirokning pasayishiga olib kelishi mumkin [3; 4].

Shu bilan birga, mazkur tadqiqot natijalari internetga qaramlik ijtimoiy xulq-atvorning bevosita sababi ekanini tasdiqlamaydi, chunki korrelyatsion tahlil sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash imkonini bermaydi. Aksincha, internetdan muammoli foydalanish va ijtimoiy xulq-atvor o‘rtasidagi munosabat ikki tomonlama va ko‘p omilli bo‘lishi mumkin. Xususan, yolg‘izlik, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va qoniqarsiz shaxslararo munosabatlar internetdan haddan tashqari foydalanishga moyillikni kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas [5; 11].

Umuman, internetdan foydalanish va real ijtimoiy faoliyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli internetga qaramlikning oldini olishda faqat internetdan foydalanish vaqtini cheklash bilan kifoyalanmay, shaxsning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, real ijtimoiy munosabatlarini mustahkamlash, mazmunli ijtimoiy faoliyatga jalb etish va virtual hamda real muhit o‘rtasida sog‘lom muvozanatni shakllantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Young K.S. Internet Addiction: The Emergence of a New Clinical Disorder // CyberPsychology & Behavior. — 1996. — Vol. 1, No. 3. — P. 237–244.

2. Young K.S. Caught in the Net: How to Recognize the Signs of Internet Addiction and a Winning Strategy for Recovery. — New York: John Wiley & Sons, 1998. — 248 p.

3. Griffiths M.D. Internet Addiction: Does It Really Exist? // Psychology and the Internet: Intrapersonal, Interpersonal, and Transpersonal Implications. — San Diego: Academic Press, 1998. — P. 61–75.

4. Griffiths M.D. A “Components” Model of Addiction within a Biopsychosocial Framework // Journal of Substance Use. — 2005. — Vol. 10, No. 4. — P. 191–197.

5. Caplan S.E. Preference for Online Social Interaction: A Theory of Problematic Internet Use and Psychosocial Well-Being // Communication Research. — 2003. — Vol. 30, No. 6. — P. 625–648.

6. Davis R.A. A Cognitive-Behavioral Model of Pathological Internet Use // Computers in Human Behavior. — 2001. — Vol. 17, No. 2. — P. 187–195.

7. Beard K.W., Wolf E.M. Modification in the Proposed Diagnostic Criteria for Internet Addiction // CyberPsychology & Behavior. — 2001. — Vol. 4, No. 3. — P. 377–383.

8. Widyanto L., McMurran M. The Psychometric Properties of the Internet Addiction Test // CyberPsychology & Behavior. — 2004. — Vol. 7, No. 4. — P. 443–450.

9. Kuss D.J., Griffiths M.D. Online Social Networking and Addiction—A Review of the Psychological Literature // International Journal of Environmental Research and Public Health. — 2011. — Vol. 8, No. 9. — P. 3528–3552.

10. Young K.S., de Abreu C.N. Internet Addiction: A Handbook and Guide to Evaluation and Treatment. — Hoboken: John Wiley & Sons, 2011. — 289 p.

11. Kardefelt-Winther D. A Conceptual and Methodological Critique of Internet Addiction Research: Towards a Model of Compensatory Internet Use // Computers in Human Behavior. — 2014. — Vol. 31. — P. 351–354.

12. Montag C., Reuter M. Internet Addiction: Neuroscientific Approaches and Therapeutical Interventions. — Cham: Springer, 2015. — 215 p.

13. Billieux J., Maurage P., Lopez-Fernandez O., Kuss D.J., Griffiths M.D. Can Disordered Mobile Phone Use Be Considered a Behavioral Addiction? An Update on Current Evidence and a Comprehensive Model for Future Research // Current Addiction Reports. — 2015. — Vol. 2. — P. 156–162.

14. Brand M., Young K.S., Laier C. Prefrontal Control and Internet Addiction: A Theoretical Model and Review of Neuropsychological and Neuroimaging Findings // Frontiers in Human Neuroscience. — 2014. — Vol. 8. — Article 375.

15. World Health Organization. International Classification of Diseases for Mortality and Morbidity Statistics (ICD-11). — Geneva: World Health Organization, 2019–2024.

1.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694